RAQAMLI MUHITDA HUDUDIYLIK MEZONINING KOLLIZION-HUQUQIY AHAMIYATI

Shopo'latova Sevara Ortiq qizi
Toshkent davlat yuridik universiteti magistri
https://doi.org/10.5281/zenodo.23044492

Annotatsiya: Ushbu tezisda raqamli muhitda hududiylik mezonining kollizion-huquqiy ahamiyati tahlil qilinadi. Raqamli maydonda geografik chegaralar an'anaviy shakllardan farq qilgani sababli, hududiylik mezoni kundalik huquqiy munosabatlarda va xalqaro huquqiy munozaralarda o'ziga xos qiyinchiliklar yuzaga keltiradi. Tezisda hududiylik mezonining raqamli platformalar, elektron tijorat, ma'lumotlarni himoya qilish va intellektual mulk sohalarida qo'llanilishi va uning kollizion huquqiy nizolarni hal qilishdagi roli o'rganiladi. Shuningdek, raqamli hududiylikni aniqlashning yangi prinsiplari va xalqaro miqyosda bu yo'nalishda yaratilayotgan standartlar muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: raqamli muhit, hududiylik, kollizion huquq, xalqaro huquq, elektron tijorat, ma'lumotlarni himoya qilish, intellektual mulk, raqamli hududiylik, internet qonunchiligi.

Kirish

Xalqaro xususiy huquqda turli davlatlar huquqiy tizimlari bilan bog'liq bo'lgan xususiy-huquqiy munosabatlarga nisbatan qaysi davlat huquqi qo'llanilishini aniqlash kollizion-huquqiy tartibga solishning asosiy vazifasi hisoblanadi. Bunda kollizion normaning mazmunini shakllantirishda muayyan huquqiy munosabatni tegishli huquqiy tizim bilan bog'lovchi mezonlar — kollizion bog'lovchilar muhim o'rin tutadi. Tarixan, harakat sodir bo'lgan joy yoki mol-mulk joylashgan joy kabi hududiy bog'lovchilar davlat yurisdiksiyasini belgilashning an'anaviy vositasi bo'lib kelgan. Biroq raqamli platformalar, tarqatilgan ma'lumotlar bazalari, blokcheyn, raqamli aktivlar, sun'iy intellekt va immersiv texnologiyalarning rivojlanishi xususiy-huquqiy munosabatlarning makonda joylashuvini aniqlashni murakkablashtirmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi

Transchegaraviy raqamli munosabatlarda ishtirokchilar, ma'lumotlar, raqamli aktivlar va texnik infratuzilma bir vaqtning o'zida bir nechta davlatlar bilan bog'lanishi mumkin. Bu esa hududiylik mezonini qayta baholash zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Shu bilan birga, zamonaviy xalqaro xususiy huquqiy yondashuvlar hududiylik mezonini butunlay inkor etmaydi. Masalan, UNIDROIT yondashuvi an'anaviy hududiy bog'lovchilarning imkoniyati cheklangan holatlarda boshqa bog'lovchi mezonlardan foydalanishni nazarda tutadi. Xususan, Principles on Digital Assets and Private Lawning 5(1)-bandida qo'llaniladigan huquqni aniqlash uchun bosqichma-bosqich ("waterfall") yondashuv belgilangan bo'lib, unda raqamli aktivning o'zida yoki u qayd etilgan tizimda ko'rsatilgan davlat huquqiga tayanish imkoniyati nazarda tutilgan.

Shu nuqtai nazardan, raqamli muhitda hududiylikning transformatsiyasini "hududiylikning yo'qolishi" emas, balki uning kollizion-huquqiy mazmuni va amal qilish usulining o'zgarishi deb baholash lozim. Mazkur muammoni tadqiq etishning dolzarbligi raqamli muhitdagi ko'plab obyektiv aloqalardan qaysi biri hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini belgilash hamda an'anaviy hududiy mezonlarning transformatsiya xususiyatlarini ochib berish zarurati bilan belgilanadi.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

1. Kollizion bog'lovchilar tizimida hududiylik mezonining o'rni va xususiyatlari

Kollizion norma muayyan munosabatga qaysi davlat huquqi qo'llanilishini belgilovchi qoida bo'lsa, kollizion bog'lovchi ushbu munosabatni muayyan huquqiy tizim bilan bog'lovchi yuridik mezon hisoblanadi.

Xalqaro xususiy huquqda an'anaviy ravishda quyidagi hududiy bog'lovchilar keng qo'llaniladi:

- **lex rei sitae** — mol-mulk joylashgan joy huquqi;
- **lex loci delicti** — delikt (zarar yetkazilgan) joyi huquqi;
- **lex loci contractus** — shartnoma tuzilgan joy huquqi;
- **lex loci solutionis** — majburiyat bajariladigan joy huquqi;
- **Shaxsiy bog'lovchilar** — Jismoniy shaxsning habitual residencei hamda yuridik shaxsning seat yoki establishmenti.

Natijalar

Hududiylik mezonining ahamiyati munosabatning davlat hududi bilan obyektiv bog'liqligidadir. Biroq zamonaviy xalqaro xususiy huquqda hududiylik yagona va universal bog'lash mezoni emas (masalan, xalqaro tijorat shartnomalarida party autonomy — taraflarning huquq tanlash erkinligi ham mustaqil kollizion mexanizmdir).

2. Raqamli muhitda hududiylik mezonini qo'llashdagi amaliy va nazariy muammolar

Raqamli muhitda an'anaviy hududiy "joy"ni aniqlash quyidagi sohalarda jiddiy murakkabliklarni yuzaga keltirmoqda:

A) Raqamli aktivlar. An'anaviy mol-mulkning jismoniy joylashgan joyi (situs) mavjud bo'lsa, raqamli aktivlarda bunday fizik situs yo'q. UNIDROIT tomonidan 2023-yilda qabul qilingan Principles on Digital Assets and Private Lawning 5-prinsipida raqamli aktivlar nomoddiy xususiyatga ega bo'lgani sababli shaxslar, idoralar, faoliyat yoki aktivlarning joylashuvi kabi odatiy bog'lovchilar mulkiy masalalarda samarali ahamiyat kasb etmasligi ko'rsatilgan.

B) Ma'lumotlar (data). Ma'lumotlarning tarqoq infratuzilmada saqlanishi ularning hududiy bog'liqligini aniqlashni qiyinlashtiradi. Serverning joylashuvi har doim ham mazmunli aloqa bo'la olmaydi. Amerika Huquq instituti (ALI) va Yevropa Huquq instituti (ELI) tomonidan ishlab chiqilgan Principles for a Data Economy: Data Transactions and Data Rightsning 40(1)-bandida ma'lumot saqlash joyi faqat saqlashning o'zi yoki moddiy vositaga bo'lgan huquqlarga taalluqli bo'lgandagina bog'lovchi sifatida ko'rilishi belgilangan. 40(2)-bandga ko'ra, saqlash joyidan boshqa bog'lovchilar bo'lmaganida qoldiq (residual) bog'lovchi sifatida foydalanish mumkin.

C) Raqamli platformalar. Platformalarda foydalanuvchi, operator, serverlar va tranzaksiya ishtirokchilari turli yurisdiksiyalarda joylashgan bo'lishi mumkin. Haga xalqaro xususiy huquq konferensiyasi (HCCH)ning Private International Law Aspects of the Digital Economy: Report nomli hisobotining 3-bandida immersiv texnologiyalar va meta-olamlarda platformalarning tarmoqlanganligi, detsentralizatsiya va foydalanuvchilarning psevdonimligi kollizion muammolarni keltirib chiqarishi ta'kidlangan.

D) Onlayn deliktlar. Ijtimoiy tarmoqlar orqali shaxsiy huquqlarni buzishda (masalan, O'zbekistondagi shaxs AQSH platformasi orqali Germaniyadagi shaxs sha'niga putur yetkazsa) harakat, kontent joylashuvi va zarar namoyon bo'lishi har xil davlatlar bilan bog'lanadi. Bu esa "zarar qayerda yetkazildi?" degan savolga yagona hududiy javob berishni qiyinlashtiradi.

3. Hududiylik mezonining transformatsiyasi va kollizion bog'lovchilarning zamonaviy modellari

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Raqamlashtirish hududiylikning ahamiyatini yo‘qotmaydi, balki uni aniqlash va qo‘llash usullarini transformatsiya qiladi. Hozirgi kunda xalqaro xususiy huquqda quyidagi yangi yondashuvlar shakllanmoqda:

- **Functional connecting factors** — munosabatning funksiyasiga asoslangan bog‘lovchilar;
- **Structural connecting factors** — texnologik yoki huquqiy tuzilishiga tayanuvchi bog‘lovchilar;
- **Factual connecting factors** — faktik aloqalarni inobatga oluvchi bog‘lovchilar;
- **Closest connection** — eng yaqin aloqa prinsipi;
- **Effects-based approaches** — huquqiy oqibatlar namoyon bo‘lgan hududga asoslangan yondashuv;
- **Party autonomy** — taraflarning huquq tanlash erkinligi;
- **Combined/multi-factor approaches** — bir nechta mezonlarni uyg‘unlashtiruvchi kompleks yondashuvlar.

Asosiy vazifa hududiylikdan voz kechish emas, balki raqamli munosabatlarda hududiylikni ushbu yangi kollizion bog‘lovchilar bilan to‘g‘ri uyg‘unlashtirishdan iboratdir.

Xulosa

Xulosa o’rnida shuni aytish joizki, raqamli aktivlarning nomoddiyligi, ma’lumotlarning tarqoqligi va onlayn deliktlarning transchegaraviyligi an’anaviy hududiy bog‘lovchilarni mexanik qo‘llash yetarli emasligini ko‘rsatadi. Biroq bu hududiylik mezonining yo‘qolganini anglatmaydi. Raqamli davrda hududiylik mezonini funksional, strukturaviy hamda faktik kollizion bog‘lovchilar bilan ilmiy va amaliy jihatdan uyg‘unlashtirish talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Xazratqulov O.T. Xalqaro xususiy huquqda kollizion normalar. – Toshkent: Toshkent davlat yuridik universiteti, 2024.
2. TSUL Kutubxonasi
3. Musayev B.T. O‘zbekiston mehnat munosabatlarini kollizion-huquqiy tartibga solish. – Toshkent: TDYU, 2025.
4. TSUL Kutubxonasi
5. Yuldasheva G., Gafurova N., Raxmonov Sh. va boshqalar. Xalqaro huquq. – Toshkent: TDYU nashriyoti, 2018.
6. unilibrary.uz
7. Allayorov J.T. Xalqaro xususiy huquqda yurisdiksiya. – Toshkent: Toshkent davlat yuridik universiteti nashriyoti.
8. Yo‘ldashev M.S. Xalqaro xususiy huquqda nizolarning hal etishning kollizion normalari // Ilm Fan Xabarnomasi. – 2024.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.